

монлама ва объектив баҳо бериш зарур. Касбий фаолиятига баҳо беришда очиқлик ва тенглик тамойилларига асосланган танловдан фойдаланган маъқул;

– барча ташкилотларда самарадорликнинг муҳим кўрсаткичи, яъни KPI (Key Performance Indicators, KPI) тизимини жорий қилиш. Тизим ташкилотларда меҳнатга ҳақ тўлашнинг мотивацион ва самарали тизимини кўрсаткичлар орқали кўриш имконини беради;

– барча ташкилотларда ахборотлаштириш, рақамлаштириш тизимини кучайтириш. Замон шиддат билан ривожланаётган вақтда, барча соҳага рақамлаштириш тизими кириб бораётган бир пайтда ташкилотларда замонавий инновацион тизимни жорий этиш;

– ходимларни бошқаришда буйруқбозлик йўли билан эмас, хорижий тажрибалардан келиб чиққан ҳолда мотивацион усуллардан фойдаланиш;

– самарали меҳнат билан банд бўлган ходимларни корхонанинг иқтисодий фаолиятидан келиб чиққан ҳолда адолати ижтимоий-иқтисодий рағбатлантириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Умуман олганда, бошқарувда кадрларнинг тўғри танланилиши ва жой-жойига қўйилиши, уларни меҳнат қилишга ундаш корхона ва ташкилотларнинг ютуқлари, мавқеини оширишда муҳим омил ҳисобланади. Айниқса, бугунги кунда раҳбар кадрларга нисбатан креатив ёндашувлар, танқидий-таҳлилий муносабат ва мақбул шарт-шароитлар яратиш талаби қўйилмоқда. Шунингдек, бозор иқтисодиёти шароитида ташкилотда ходимларни бошқариш самарадорлигига таъсир этувчи омиллардан тўғри ва самарали фойдаланиш пировард натижада ташкилот иқтисодий самарадорлигининг ошишида муҳим аҳамият касб этади. Бу жараёнларнинг барчаси янгиланаётган Ўзбекистонда кадрлар соҳасидаги ислохотларни янада чуқурлаштиришни англатади.

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Одегов ЮТ. Управление персоналом в структурно-логических схемах. – М., 2008.
2. Рашидова Н.Р., Абдуллаев А.Ж. Ташкилотларда ходимларни самарали бошқаришнинг илғор хорижий тажрибаларидан фойдаланиш истиқболлари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2021-yil. 129-138-b.
3. Маусов Н. Менеджмент персонала ключевое звено внутрифирменного управления. // Проблемы теории и практики управления. 2016. № 6. С. 8.
4. Крамаренко В.И. Управление персоналом фирмы. Уч. пособие. – К.: ПУЛ, 2003. – 75 с.
5. Марра Р. Управление персоналом в условиях социальной рыночной экономики. // Р.Марра, Г.Шмидт. 2014.
6. Дорофенко В., Комар Ю., Токарев В.; под ред. С.Ф.Поважного. – Донецк, 2008. С. 96.
7. Маслов Е.В. Управление персоналом предприятий. – М.: ИНФРА-М, 1998. С. 28.
8. Mosca G. The Ruling Class. – New York: McGraw-Hill, 2000.
9. Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах: сравнительное исследование. – М., 2018.
10. Муаллиф томонидан илмий изланишлар натижасида ишлаб чиқилди.
11. Технический прогресс и движение рабочих кадров. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010.
12. Рашидова Н.Р., Абдуллаев А.Ж. Ташкилотларда ходимларни самарали бошқаришнинг илғор хорижий тажрибаларидан фойдаланиш истиқболлари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2021-yil. 129-138-b.
13. Теоретические основы менеджмента персонала. Учеб. пос. – М.: РЭА, 2000. С. 77-79.
14. Тўхтаева Хуршида Фарходовна. Ташкилотда ходимларни рағбатлантириш ва мотивациялаш жиҳатлари. // ORIENSS. 2022. № Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tashkilotda-hodimlarni-ra-batlantirish-va-motivatsiyalash-zhi-atlari>
15. Высшие административные кадры и устройство Европы. – М.: Посольство Франции в Москве, 1999. С. 36-37.



AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARINING NAZARIY ASOSLARI

Umarova Gulandom Tumanovna -
Toshkent moliya instituti,
mustaqil izlanuvchi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a24

Аннотатсия. Mazkur maqolada aholi va bandlik tushunchalari ta'riflangan. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash yuzasidan olib borilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar yo'nalishlarga ajratilib, tizimli tahlil qilingan. Mamlakatda bandlikni oshirishga oid xulosa va takliflar berilgan.

Калит so'zlar: aholi, bandlik, iqtisodiy kategoriya, mehnat bozori, ishchi o'rinlari, bandlik yo'nalishlari, ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy, chora-tadbirlar.

*Умарова Гуландом Тумановна -
Ташкентский финансовый институт,
самостоятельный соискатель*

Аннотация. В данной статье определяются понятия населения и занятости. Меры, которые можно предпринять для обеспечения занятости населения в Узбекистане, разделены по направлениям и системно проанализированы. Даны выводы и предложения по увеличению занятости в стране.

Ключевые слова. Население, занятость, экономическая категория, рынок труда, рабочие места, тенденции занятости, административные, экономические, социальные меры.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DIRECTIONS FOR INCREASING EMPLOYMENT OF THE POPULATION

*Umarova Gulandom Tumanovna -
Tashkent Financial Institute, independent researcher*

Abstract. In this article, the concepts of population and employment are defined. The measures that can be taken to ensure the employment of the population in Uzbekistan have been divided into directions and systematically analyzed. Conclusions and suggestions on increasing employment in the country are given.

Keywords. Population, employment, economic category, labor market, jobs, employment trends, administrative, economic, social, measures.

Kirish. Aholi yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson)lar majmuyi hisoblanadi [14]. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri uning bandligidir. Ya'ni bandlik aholini ish bilan ta'minlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir [7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bandlik tushunchasi bir qator iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liq. Iqtisodchi olimlar Q.X.Abdurahmonov va T.A.Sharafullina bandlikka kategoriya sifatida kishilar o'rtasidagi ish joylarining qayerda joylashganligidan qat'i nazar ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirok etish yuzasidan bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir, deb ta'rif bergan [1].

V.S.Bulanov fikriga ko'ra, bandlik iqtisodiy kategoriya sifatida aholining mehnat faoliyatida ishtirok etishi bilan bog'liq munosabatlar majmuyidan iborat bo'lib, u mehnatga qo'shilish me'yorini, xodimlarning ijtimoiy va xaq to'lanadigan ish o'rinlariga hamda daromad olishga bo'lgan shaxsiy manfaat va ehtiyojlarining qondirilishi darajasini ifodalaydi [5].

Boshqa bir xorijlik olimlar tomonidan ham turli ta'riflar keltirilgan bo'lib, jumladan, V.A.Pavlenkov ta'rif bo'yicha aholi bandligi qonunda belgilangan yoshga yetgan va hozirgi paytda moddiy yoki pul shaklida daromadlar olib keladigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi fuqarolardir [8]. E.R.Saruxanov tomonidan esa bandlik xodimlar ishtirok etadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir, ya'ni ular moddiy

ne'matlar ishlab chiqarish va takomillashtirishda insonlar faoliyatini amalga oshiradilar [10], deya ta'riflangan.

Ish bilan bandlik insonning moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, xizmatlar ko'rsatish faoliyati orqali o'zi va oilasini tirikchilik o'tkazish uchun zarur mablag' ishlab topishi bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi, deya ta'rif beradi G.Abdurahmonova [3].

M.M.Mirzakarimova ta'rifiga ko'ra esa bandlik ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida aholining mehnat faoliyatida ishtirok etishi yuzasidan boradigan munosabatlar majmuyini ifodalaydi. Ya'ni mehnatga kirishish o'lchovini, ishchilarga bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirish darajasini, haqi to'lanadigan ishchi o'rinlaridan daromad olishdan manfaatdorlikni ifodalaydi [7].

A.O'lmasov va A.Vahobov fikricha, bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarning ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlaridir [13].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, biz bandlik mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirok etishi yuzasidan bo'ladigan munosabatlarning ayrim jihatlarini, ya'ni ularning aynan mehnat qilish, ish joyi bilan ta'minlanishi bilan bog'liq tomonlarini o'z ichiga oladi, degan tushunchani berishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Aholi ish bilan bandligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab aholining farovon hayot kechirishidir. Maqolada aholi bandligini oshirishga qaratilgan choratadbirlar iqtisodiy tahlil, guruhlash, tanqidiy baholash metodlaridan foydalanib, sohani isloh etish yo'nalishlari jadval usulida yoritib berildi. Mehnat bo-

zorini raqobatbardosh, yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlari tahlil qilinib, natijada bandlikni oshirish bo'yicha mamlakatga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Ish bilan band aholiga yo'llanib ishlaydigan fuqarolar, shu jumladan, to'liq yoki noto'liq ish kuni (hafta) mobaynida haq olib ish bajaradigan, shuningdek, tegishli shartnoma, bitim bilan tasdiqlangan haq to'lanuvchi ishga ega bo'lgan, kasalligi, ta'tilga chiqqanligi munosabati bilan ishda bo'lmagan fuqarolar kiradi. O'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan shaxslar, shu jumladan, tadbirkorlar va fermerlar, harbiy qismda xizmat qilayotgan shaxslar, o'quvchilar ham ish bilan bandlar jumlasiga kiradi [4]. Ish izlayotgan, ishini o'zgartirayot-

gan, vaqtincha ishlamayotgan aholi va ishdan ajralgan holda o'qimayotgan, ishning mavsumiy ekanligi tufayli vaqtincha ishlamayotganlar ish bilan band bo'lmagan iqtisodiy faol aholi jumlasiga kiritiladi [2].

Bandlikning 1) to'liq bandlik; 2) to'liqsiz bandlik, ikkilamchi bandlik; 3) o'zicha bandlik; 4) samarali bandlik; 5) o'zgaruvchan va egiluvchan bandlik kabi turlari mavjud [9].

Shuningdek, aholining ish bilan bandligini, uning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilishini o'rganishda turlicha yondashuvlar vujudga kelgan, bunday yondashuvlar asosida turli konsepsiya va qarashlar tizimi ham shakllangan bo'lib, odatda, iqtisodiy adabiyotlarda to'rt konseptual: klassik, keynscha, institutsional va monetaristik yondashish ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Aholining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan nazariyalar [15]

Asoschilar	Nazariyalar	Qarashlar
D.Rikardo, J.S.Mill va A.Marshall	Klassik	Ish bilan to'liq bandlik, bozor iqtisodiyotining me'yori, davlatning ajralmas siyosati, eng yaxshi iqtisodiy siyosat g'oyasini ilgari surgan.
J.Perri, M.Feldsteyn, R.Xoll	Yangi klassik	Aholi bandligini ta'minlashning asosiy mexanizmi mehnat bozori bo'lib, u boshqa barcha bozorlar kabi narx muvozanati asosida ishlaydi, ishchi kuchining narxi esa mehnat bozorining asosiy tartibga soluvchisidir, deb hisoblaydi.
J.M.Keyns	Keynscha	Davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab-quvvatlaydi. Iqtisodiyotda to'liq ish bilan bandlikni kafolatlaydigan hech qanday mexanizm mavjud emasligini, to'liq ish bilan bandlik qonuniylik darajasida bo'lishdan ko'ra ko'proq tasodifiyroq bo'lishini aytgan [6].
M.Fridmen, F.Keygen, D.Mayzelman, K.Brunner, A.Molser	Monetaristik	Ushbu nazariya tarafdorlari ish bilan bandlik va iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ta'minlash maqsadida pul-kredit siyosatini ilgari suradi.
CH. Xolt, Ch. Perri, M.Feldsteyn	Hozirgi zamon	Bu nazariya mualliflari ishsizlikni umumiy emas, balki ishchi kuchining har bir alohida toifasiga nisbatan tushuntirish, mehnat bozoridagi har bir oqimga tegishli bo'lgan o'ziga xos sabablar va ish bilan band emaslik manbalarini izlab topish lozimligini aytgan.

Manba: jadval muallif tomonidan tuzilgan.


Ushbu nazariyalarni o'rganish natijasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida, ayniqsa, mehnat resurslarining o'sish sur'atlari yuqori bo'lganda, ishchi kuchiga talab va taklifni erkin bozor holatiga qo'yish mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin. Bunda innovatsion iqtisodiyotning asosiy rivojlanish tamoyillarini inkor etmagan holda, davlatning iqtisodiyotga ma'lum ma'noda aralashishi, tartibga solib turishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir mamlakat fuqarolarining o'z salohiyati va qobiliyatini ro'yobga chiqarish huquqini ta'minlash maqsadida, o'z ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda aholining doimiy ish bilan bandligini, bandlik darajasi yo'nalishlarini oshirib borishga harakat qiladi. Bunda aholining o'z salohiyati va qobiliyatidan farovon hayoti uchun zarur iqtisodiy foyda olish maqsadida foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Aholi bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin (1-rasm).

Aholi bandligini oshirishga qaratilgan *ma'muriy chora-tadbirlarni* amalga oshirish samaradorligi:

Soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish. Soliq yukini kamaytirish hisobiga tejab qolgan mablag'lar investitsiya sifatida o'zlashtirilib, ishlab chiqarishning kengayishini ta'minlaydi. Buning natijasida qo'shimcha ish o'rinlari paydo bo'lib, ishchi kuchiga talabni keltirib chiqaradi. Bu esa yuqorida biz o'rganayotgan aholi bandligining ortishiga sabab bo'luvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish. Kredit foiz stavkalarining pasaytirilishi kreditga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Olingan pul mablag'lari ishlab chiqarishni tashkil etish, takomillashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlash, hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlarini yo'lga qo'yishi uchun qulay muhit yaratadi. Bu yangi ish o'rinlarini ko'paytirib, ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Natijada aholining ish bilan bandligi ta'minlanishi, turmush tarzi yaxshilanib borishiga erishiladi.



1-rasm. Aholi bandligini ta'minlash yo'nalishlari

Manba: aholi bandligiga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Turizm industriyasini jadal rivojlantirish. Turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan reja va chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi xorijiy mehmonlar sonining oshishiga, sayyohlar oqimining ko'payishiga, yangi turizm obyektlarini yaratish, mehmonxonalar qurish yoki mavjudlarining imkoniyatlarini oshirishga, shuningdek, dam olish maskanlari, bog'larni barpo etishga, transport xizmatlari va turizm oqimining logistikasini yaxshilash ishlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Bu, o'z o'rnida, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashga asos bo'ladi.

Mamlakat ichida ichki turizmni rivojlantirish yalpi ichki mahsulotda uning ulushi oshishi natijasida bandlikka oid muammolarning hal qilinishiga xizmat qiladi [12].

Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, xususiy mulkni himoya qilish va daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bu soha jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanadi. Iqtisodiy barqarorlik yuzaga keladi. Aholining ish bilan bandlik darajasida o'sish yuzaga keladi.

Ish bilan bandlikka ko'maklashish bo'yicha davlat jamg'armalarini tashkil etish. Bandlikka ko'maklashish bo'yicha davlat jamg'armalari ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa ijtimoiy imkoniyati cheklangan qatlam uchun mehnat bozorida ishtirok etishiga sharoitlar yaratish, ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini barpo qilish, ishga joylashishi uchun maslahat berish kabi jarayonlarga doir tadbirlarni moliyalashtirish hamda bandlik va mehnatni muhofaza qilish masalalariga taalluqli boshqa jarayonlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlarga haq to'lashni yo'lga qo'yish kabi ma'lumotlarning yetkazilishi aholining ish topishi va bandligining ta'minlanishida qulayliklarni vujudga keltiradi.

Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish. Iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, ichki narxlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning kafolati hisoblanadi. Bunda narxlar barqarorlashuvi va muvozanatli iqtisodiy o'sish ta'minlanib, ishlab chiqarish sur'ati va raqobatbardoshligining oshishi yuzaga keladi. Natijada yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi bandligi barqarorligi ta'minlanadi.

Davlat mulkini xususiyashtirishni yanada kengaytirish. Davlat mulkini xususiyashtirish davlat ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari, mol-mulk obyektlari, uy-joy, transport kabilarni davlat tasarrufidan chiqarish va jismoniy hamda davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslarga berish yoki sotish jarayoni hisoblanadi. Davlat mulki asosida turli mulk

shakllari vujudga keladi. Xususiyashtirilgan davlat mulki obyektlaridan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etishda foydalaniladi. Bu ishchi kuchiga bo'lgan talabni yuzaga keltiradi. Aholi ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Qishloq infratuzilmasini yaxshilash. Iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi, tayyor va yarimtayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik qurilmalar bilan jihozlangan qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarida texnik, texnologik jihatdan qayta ta'mirlash ishlarini oli borish bo'yicha investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish bilan bog'liq xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish ishlarining yo'lga qo'yilishi ishchi kuchiga bo'lgan talabni orttiradi va bevosita aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi.

Mehnat bozorini tartibga solish. Mehnat bozori mehnat resurslarining mehnat qilish qobiliyatini sotish hamda korxonalar va tashkilotlarning ishchi kuchining mehnat qilish qobiliyatini sotib olishini amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini ifodalovchi bozor hisoblanib, mehnat bozorini oqilona shakllantirishning muhim sharti – mehnat resurslari bilan ish joylari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Mehnat resurslari mehnat bozori orqali mintaqalar, tarmoqlar, firmalar va kasblar bo'yicha taqsimlanadi. Korxonalar zarur miqdor va talab qilingan sifatga ega ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko'rsatib beradi. Ish beruvchilar esa mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Talab mehnatga bo'lgan ehtiyojni tavsiflaydi, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning qancha ishchi qabul qilishga tayyor ekanliklarini va bo'sh o'rinlar sonini aks ettiradi. Bu aholining o'zi uchun mos ish topish hamda ishga joylashish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solish bevosita (masalan, qonunchilik) yoki bilvosita (fiskal, ijtimoiy, monetar, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yoki tashqi iqtisodiy jihatdan tartibga solish siyosati orqali) ta'sir ko'rsatish usullari orqali amalga oshiriladi. Bilvosita usullarning qo'llanishi mehnat bozorini tartibga solishda ish bilan bandlikning tarmoq va hududiy tarkibini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, moliyaviy rag'batlantirish va davlat kapital mablag'lari yordamida shakllantirilgan moliyaviy manbalar ayrim tarmoqlar yoki mintaqalar rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bunda ba'zi hollarda iqtisodiy o'sish sur'ati past bo'lgan mintaqalar yoki xo'jalik yurituvchi subyektlar, boshqa hollarda mintaqalar yoki tarmoqlar ichida ijobiy siljishlarga olib keladigan tarmoqlar yoki ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish

qo'llab-quvvatlanadi va yordam ko'rsatiladi. Bu ushbu mintaq va tarmoqlarida ish bilan bandlik darajasini orttiradi.

Ish bilan bandlik tadbirlarini moliyalashtirish. Respublika xarajat majburiyatlari va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ish bilan bandlikni ta'minlashning quyidagi yo'nalishlari – kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, biznesga kredit ajratish, jamoat ishlarini tashkil qilish, qayta o'qitish kabi tadbirlarning amalga oshirilishining moliyalashtirilishi yangi ish joylarini yaratish imkonini yuzaga keltiradi, aholi bandligining ortib borishiga turtki bo'ladi.

Aholi bandligini oshirishga qaratilgan *iqtisodiy chora-tadbirlarni* amalga oshirish:

Subsidiya va kreditlar berish. Subsidiya va kreditlar korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida ajratiladi. Bu ishlab chiqarish hajmining kamayishi hamda ishsizlik darajasi oshishini bartaraf etishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, subsidiya va kreditlar ish kuchi harakatchanligini ta'minlash, kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil qilish, o'zini o'zi band qilish uchun ham ajratiladi. Bu yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini keltirib chiqaradi. Natijada ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi, aholi bandligi ta'minlanadi.

Investitsiyalar bo'yicha imtiyozlar berish. Milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'lari mamlakatda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, natijada aholi bandligining, daromadlarining oshishiga, turmush sharoitining yaxshilanishiga, bir so'z bilan aytganda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga, barqaror iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Hududlar salohiyatidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish. Har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo resurslari hamda sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks tarzda samarali foydalanish, ular iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yangi sanoat ishlab chiqarish, servis markazlarini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasining yaxshilanishi aholi farovonligini ta'minlaydi, ish bilan bandligini oshiradi.

Xodimlar salohiyati sifatini oshirish. Mintaqalardagi mavjud ishsizlikning asosiy sababi ko'p hollarda ishsizlarning malakasi va mavjud ish o'rinlarining malaka talablariga mos kelmasligidadir.

Ta'lim muassasalari bilan iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida mustahkam amaliy aloqani yo'lga qo'yish lozim. Mehnat bozori va ishlab chiqarish bilan uzviy aloqada bo'lmagan ta'lim tizimi iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassis yetkazib bera olmaydi. Ta'lim muassasalari tomonidan tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalarini hamda dasturlarning kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga ko'ra, mustaqil ravishda ishlab chiqilishi hududlarda malakali kadrlar bilan bog'liq

muammolarga yechim bo'lishi bilan birga mutaxassislarining ish bilan ta'minlanishini kafolatlaydi. Ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi aholi bandligini oshirib borish yo'nalishlarida olib borilayotgan islohotlar asosi hisoblanib, bandlik masalasining hal etilishida lokomotiv vazifani o'taydi. Ta'lim jarayonining to'g'ri olib borilishi shaxsning bandligiga bevosita ta'sir o'tkazadi, ish sifat darajasi oshishiga xizmat qiladi. Kadrning egallagan ko'nikmalari orqali optimal bandlik namoyon bo'ladi.

Masofadan turib ishlash tizimini tashkil qilish. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ish beruvchilar va ishlovchilarga masofadan turib xizmatlar ko'rsatish joriy etiladi. Jumladan, mahsulotlarni sotish va realizatsiya qilish, marketing, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik kabi ish turlarining yo'lga qo'yilishi aholining mazkur soha bo'yicha bandligini ta'minlashni yanada oshiradi.

Tadbirkorlik rivojlanishi. Tadbirkorlik qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foйда) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib, mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat hisoblanadi. Aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning biznes g'oyalari amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish, hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilalarning barqaror va qo'shimcha daromad manbayiga ega bo'lishi, milliy hunarmandchilikning yanada rivojlanishi, xotinqizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirishi, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga imkoniyatning yaratilishi aholi bandligi ta'minlanishiga zamin yaratadi. Chunki kichik biznes tuzilishiga ko'ra ixcham, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o'zlashtiradi, jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va konyunktura o'zgarishlariga ancha tez moslashadi. Tadbirkorlikni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo'yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash va raqobatdoshligini ta'minlash imkonini beradi. O'rganish obyektimiz bo'lgan bandlikning oshishiga olib keladi.

Servis markazlari, kichik sanoat zonalari tashkil qilish. Kichik sanoat zonalari – tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik-kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishini jadallashtiradi, hududlarning tadbirkorlik uchun investitsion jozibadorligini oshiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, ularning rivojlanishiga

keng imkoniyatni vujudga keltiradi. Bo'sh maydonlardan iqtisodiy sektorni rivojlantirish uchun foydalanishga, aholi uchun yangi ish joylarini yaratishga olib keladi.

O'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligidagi imtiyozlar. Hududlarda ta'lim muassasalari bitiruvchilarini qo'llab-quvvatlashga e'tibor kuchayishi, ularga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun kreditlar ajratilishi yoshlarning o'ziga ishonchining ortishiga, ish topishda qiynalayotgan yoshlarga imkoniyatlardan foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish, ularni xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi bandligining oshishiga asos bo'ladi. Bitiruvchilarga berilayotgan imtiyozlar, masalan, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari ta'lim muassasasini tamomlagan kundan boshlab uch yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, ishga joylashganidan keyin birinchi yil davomida ish haqidagi olinadigan daromad solig'i belgilangan stavkasi 50 foizga, ikkinchi va uchinchi yil davridagi ish faoliyati bo'yicha 25 foizga kamaytirilishi ish beruvchilarning oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishdan manfaatdorligini kuchaytirish hamda imtiyozni qo'llash natijasida bo'shaydigan mablag'larning bir qismini bitiruvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarga yo'naltirish imkonini beradi. Bu bevosita kasbiy malakasining oshishi, aholining barqaror ish bilan ta'minlanishiga olib keladi.

Ish bilan bandlikning noan'anaviy turlarini tashkillashtirishni rag'batlantirish. Ish bilan bandlikning noan'anaviy turlari – uy mehnati, oilaviy biznes, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va qoramolchilik kabilar bilan shug'ullanish aholi ish bilan bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bundan tashqari aholi orasida "Yangi kasanachilik", "Elektron kasanachilik" kabi bandlikning yangi turlarini tashkil qilish va rivojlantirish ham aholi bandligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha imtiyozlar berish. Iqtisodiyotda islohotlarni amalga oshirishni kengaytirish, diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash natijasida ishlab chiqarish tarmoqlari kengaytiriladi, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Aholining ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Ijtimoiy chora-tadbirlarning aholi bandligini oshirishdagi ahamiyati:

Ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish. Ishga

joylashishga muhtoj fuqarolar, jumladan, uyushmagan yoshlar va imkoniyati cheklangan shaxslarni iqtisodiyot tarmoqlari hamda mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ularning ish bilan bandligiga erishiladi.

O'z-o'zini band qilishni rag'batlantirish. O'zini o'zi ish bilan ta'minlash, o'zi va oila a'zolari uchun ish joyi yaratish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik bilan shug'ullanish hisoblanib, bandlikning ushbu turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish aholi turmush darajasini yanada yaxshilashi, farovonligining ortishi va ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbiy reabilitatsiya qilish va ishga joylashtirish. Nogironligi bo'lgan fuqarolar mehnatidan foydalanish uchun nogironligi bo'lgan xodimlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish (korxonalar, sexi) turlarini tashkil etish. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan, nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun band qilib qo'yiladigan ish joylari, nogironligi bo'lgan bolalari bor ko'p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlarini bo'yicha vazifalarni uyg'unlashtirish imkonini beradigan, o'zgaruvchan ish jadvaliga ega mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to'sqinliksiz bajarish imkonini (sog'lig'ining holati va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko'rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish joylari tashkil etish. Natijada aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamining ham o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda ish bilan bandligi ta'minlanadi, aholining bandlik darajasi ortadi.

Oilaviy va qishloq joylarda bandlikni oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 32 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi hamda soha respublika ishchi kuchlarining kamida 27 foiz bandligini ta'minlaydi. Shuningdek, aholining deyarli yarmi qishloqlarda istiqomat qiladi, bu esa qishloq aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilashni muhim masala sifatida qarashni talab etadi. Bugungi kunda aholi bandligini oshirishga qaratilgan islohotlarning olib borilishiga qaramay, qishloq hududlaridagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oila a'zolari bandligini ta'minlashda oqsoqliklar ko'zga tashlanadi. Qishloq xo'jaligi sohasida hudud imkoniyatidan kelib chiqqan holda klaster shaklida ish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarish samaradorligini hamda aholi bandligini oshirish mumkin. Yoki fermerlikning turli shakllarini shakllantirish lozim. Natijada qishloq mehnat bozorida barqarorlikka, aholi, ayniqsa, ayollar bandligining oshishiga erishiladi.

Axborot-maslahat markazlarini yo'lga qo'yish. O'z biznesini boshlayotgan yosh tadbirkorlarga imtiyozli narxlarda yuridik, texnik va boshqa maslahat yordamlari ko'rsatiladi, ish qidirayotgan va mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolarga ish turi, ish joyi va mehnat rejimini erkin tanlash maqsadida kasb-koriga doir bepul maslahatlar berib boriladi. Natijada aholining ish qidirish va ishga joylashishida uchraydigan ovoragarchiliklar, rasmiyatchiliklar soni kamayadi. Aholining o'z imkoniyati va xohishiga mos ish topish imkoniyati ortadi.

Aholining alohida guruhlar uchun ish beruvchilarga kompensatsiyalar ajratish. Aholining alohida guruhlar – yoshlar, nogironlar, ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashlari uchun ish beruvchilarga kompensatsiyalar ajratish, natijada og'ir turmush sharoitida yashayotgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar tadbirkorlik, hunarmandchilik va ixtirochilik faoliyatiga keng jalb qilinadi. Natijada ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, aholi o'rtasida faol tadbirkorlik rivojlantirilib, kasachilik, tomorqachilik bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi va shu asosda aholi bandligini oshirish samaradorligiga erishiladi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Xotin-qizlarni mamlakatning ijtimoiy, siyosiy hayotida, xalqaro xotin-qizlar harakatida faol ishtirokiga, ularning nodavlat notijorat tashkilotlarda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun ko'maklashishga qaratilgan tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish. Xotin-qizlarning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy va boshqa yordamlar bilan birga xotin-qizlarga ishlash uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish lozim, chunki ish bilan ta'minlanish xotin-qizlar mustaqilligi, ularning faol ijtimoiy, hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlarining muhim sharti hisoblanadi.

Ishga joylashish va ish faoliyatida gender jihatlarini inobatga olish. Gender tengligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozori hamda bandlik sohasida gender tengligi erkaklar va ayollarga mazkur

bozor taqdim etadigan barcha imkoniyatlardan teng foydalanishlarini ta'minlashni ko'zda tutadi. Gender tengligining asosiy g'oyasi erkak va ayoldagi teng huquqlilik o'z salohiyatini amalga oshirish uchun barcha manbalardan foydalana olishni ta'minlashdan iborat. Jinslarning teng huquqliligini ta'minlash ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ya'ni ayollarning ahvoli yaxshilanadi, ularning huquqlari kengaydi. Xotin-qizlar bandligini oshirish uchun ularning mehnat faoliyati, jamiyat hayotidagi ishtirokini oilaviy majburiyatlar bilan birga olib borish, shu jumladan, mehnat qilish imkoniyatini beradigan, bolalarni parvarishlash muassasalari tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish orqali sharoitlar yaratish lozim. Natijada ayollarning faolligi va bandligi ortadi.

Shuningdek, mintaqalarda sanoat innovatsion salohiyatining o'sishi, amaldagi ishlab chiqarish salohiyatining texnik va texnologik yangilanishi hamda yuqori texnologiyali faoliyat turlari rivojlanishining jadallashgan sur'atlarini ta'minlaydi [11].

Xulosa va takliflar. Aholi ish bilan bandligini oshirishda, avvalo, mamlakatdagi demografik o'zgarishlarni inobatga olish lozim. Ya'ni demografik vaziyatni inobatga olgan holda yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi; shuningdek, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan an'anaviy va zamonaviy kasblarga qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, bandlikning nostandart shakllarini tatbiq etish kerak; o'zini o'zi band qilish orqali bandligini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish, yaratish, ish vaqtining davomiyligini tartibga solish lozim.

Bir so'z bilan aytganda, aholi bandligi va ishchi kuchiga bo'lgan talabning shakllanishiga ijtimoiy soha, uning yetakchi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy-madaniy infratuzilma, shuningdek, davlat tomonidan o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya, innovatsion hamda sanoat sohasidagi o'zgarishlar, hattoki, moliya-soliq, davlatning hududiy siyosati ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shunday ekan, mamlakatda bandlik darajasini rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda kompleks tarzda yondashuv talab etiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Қ.Х., Шарафуллина Т.А. Экономика и социология труда. Учебное пособие. – М.: изд, РЭА им. Г.В.Плеханова, 2002.
2. Abdurahmonov Q., Shoyusupova N. Aholi ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – T., 2011.
3. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. Monografiya. – T., 2013.
4. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – T., 2019.
5. Буланов В.С. Экономика труда: (социально-трудовые отношения). / Под ред. Н.А.Волгина, Ю.Г.Одегова. – М.: Экзамен, 2002.
6. Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Гелиос АРБ, 2002.
7. Mirzakarimova M. O'zbekistonda bandlik tarkibini takomillashtirish muammolari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 2016-yil mart-aprel, 2-son.
8. Павленков В.А. Рынок труда. Занятость. Безработица. – М.: МГУ, 2004. – 584 с.
9. Rahimova D. Bandlik (onlayn ensiklopediya). <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bandlik-uz/>
10. Саруханов Э.Р. Проблемы занятости в период перехода к рынку. – СПб.: СПбУ. ЭФ, 2001. – 254 с.
11. Umarova G.T. Mintaqa aholisi bandligini oshirishda sanoat innovatsion salohiyatining ahamiyati. – T., 2020. https://journals.uz/wpcontent/uploads/2020/08/conf_19_2020/9.Iqtisodiyotda_innovatsiyalarning_tutgan_urni_1_qism.pdf
12. Umarova G.T. Ekoturizm: aholi bandligini ta'minlash asosi sifatida. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi. 1-son (46). – Nukus, 2020.
13. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014.
14. Qayumov A. Aholi (onlayn ensiklopediya). <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aholi-uz/>.
15. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti va nazariyasi. (Darslik). – T., 2019-y. 240-251-b.